

2. Viloyat miqyosida ESG tamoyillarini joriy etgan korxonalariga soliq imtiyozlari va moliyaviy rag'batlar tizimi joriy etilsin.

3. Xorazm viloyati sanoat korxonalarini Toshkent Fond Birjasida ro'yxatdan o'tkazish jarayonini soddalashtiruvchi dasturlar ishlab chiqilsin.

4. ESG tamoyillarini viloyat miqyosida joriy etish bo'yicha 2025-2030 yillarga mo'ljallangan "Xorazm – Yashil Sanoat" dasturini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Clark, G.L., Feiner, A. va Viehs, M. (2015), *From the stockholder to the stakeholder: How sustainability can drive financial outperformance*, Oxford University, Oxford.

2. Friede, G., Busch, T. va Bassen, A. (2015), *ESG and financial performance: aggregated evidence from more than 2000 empirical studies*, *Journal of Sustainable Finance & Investment*, 5(4), 210-233.

3. Karimov, U. (2022), *ESG mezonlari asosida sanoat korxonalarini moliyalashtirish istiqbollari*, *O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, 5(2), 67-81.

4. Mirzayev, A. (2023), *O'zbekiston sanoati rivojlanishining hududiy xususiyatlari*, *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(1), 45-58.

5. Nazarov, M. (2023), *Moliya bozorida institutsional investorlarning roli: regional tahlil*, *Moliya va bank tizimi jurnali*, 3(1), 19-35.

6. OECD (2023), *Corporate governance in Uzbekistan: Review and policy recommendations*, OECD Publishing, Paris.

7. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.*

8. Libman, A. va Perez, N. (2020), *Sustainable finance in Central Asia: Challenges and opportunities*, Eurasian Development Bank, Almaty.

9. World Bank (2024), *Uzbekistan Economic Update: Green Growth and Regional Development*, World Bank, Washington D.C.

10. Yusupov, F. (2022), *O'zbekiston moliya bozorini rivojlantirishning institutsional omillari*, *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 4(2), 12-29.

11. Zakhidov, T. va Rashidova, N. (2021), *Regional economic development and industrial enterprise efficiency in Uzbekistan*, *Central Asian Economic Review*, 3(1), 34-52.

## **O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISHDA YASHIL OBLIGATSIYALARNING O'RNI VA ISTIQBOLLARI**

**Aliqulova Nilufar Bahodir qizi**

TDIU, "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasida, PhD

**Jamoliddinova Malika**

TDIU, "Korporativ oliya va qimmatli qog'ozlar bozori" mutaxassisligi magistri

Hozirgi kunda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni jadal takomillashib, bu yo'nalishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mamlakatda 2019-yilda 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi<sup>355</sup> tasdiqlanib, unda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda yashil

---

<sup>355</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida." PQ-4477-son, 4 oktabr 2019 yil. – Toshkent.

iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. 2022-yilda ushbu islohotlar samaradorligini oshirish, yashil investitsiyalarni jalb etish va ekologik barqaror o'sishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilindi.<sup>356</sup> 2025-yilning "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi ham bu boradagi islohotlarning izchil davom etayotganini ko'rsatadi. Mazkur sharoitda yashil obligatsiyalar ekologik loyihalarni moliyalashtirish, investitsiya resurslarini safarbar etish va kapital bozorining yashil segmentini rivojlantirishning muhim instrumentlaridan biri sifatida alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni safarbar etishda yashil moliyalashtirish instrumentlari muhim o'rin tutadi. Bular orasida yashil obligatsiyalar alohida ahamiyatga ega. Yashil obligatsiyalar — bu jalb qilingan mablag'lar ekologik loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan qarz qimmatli qog'ozlari hisoblanadi.<sup>357</sup>

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar singari O'zbekistonda ham yashil obligatsiyalarni joriy etish uchun zarur iqtisodiy shart-sharoitlar mavjud. Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ayniqsa quyosh va shamol energiyasi salohiyati juda yuqori. Shu bilan birga, ekologik infratuzilmani rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish hamda chiqindilarni qayta ishlash tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

**1-jadval**

**O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan asosiy investitsiyalar  
(2019–2023-yillar)<sup>358</sup>**

No	Yo'nalish	Investitsiya hajmi (mlrd AQSh dollari)	Ulushi (%)	Moliyalashtirish manbalari
1	Quyosh energetikasi loyihalari	6.2	26.5	Xalqaro moliya institutlari, kreditlar
2	Shamol energetikasi loyihalari	5.5	23.6	Xorijiy investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik
3	Energiya samaradorligi loyihalari	3.0	12.8	Bank kreditlari, davlat dasturlari
4	Ekologik transport va infratuzilma	2.4	10.3	Davlat investitsiyalari
5	Suv resurslarini boshqarish	1.9	8.1	Xalqaro grantlar
6	Chiqindilarni qayta ishlash va ekologik loyihalar	1.6	6.9	Davlat va xususiy investitsiyalar
	Jami	20.6	100	

<sup>356</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida." PQ-436-son, 2 dekabr 2022 yil. – Toshkent.

<sup>357</sup>Vahobov A., Xojibokiev Sh. Yashil iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 250 b.

<sup>358</sup> O'zbekiston yashil investitsiyalari bo'yicha yillik hisobot, [IMV Green Finance platformasi](#) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalarning asosiy qismi qayta tiklanuvchi energetika loyihalariga to'g'ri keladi. Xususan, quyosh va shamol energetikasi loyihalari jami investitsiyalarning qariyb yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi. Bu esa mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini bildiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini to'liq amalga oshirish uchun katta hajmdagi investitsiyalar talab etiladi. Ayrim xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, mamlakatning iqlim va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishi uchun har yili milliardlab dollar miqdorida investitsiyalar zarur bo'ladi.<sup>359</sup> Biroq mavjud davlat byudjeti mablag'lari va bank kreditlari ushbu ehtiyojni to'liq qoplay olmaydi. Shu sababli kapital bozori instrumentlari, xususan yashil obligatsiyalar muhim moliyaviy manba sifatida namoyon bo'lmoqda. Yashil obligatsiyalar orqali davlat va xususiy sektor ekologik loyihalar uchun uzoq muddatli resurslarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu instrument xalqaro investorlar, institutsional fondlar va ESG tamoyillariga amal qiluvchi investitsiya kompaniyalarini jalb etishga xizmat qiladi.

Biroq shuni ta'kidlash joizki, yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjud. Avvalo, kapital bozori infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi investitsiya oqimlarini jalb qilishni qiyinlashtiradi.<sup>360</sup> Bundan tashqari, yashil loyihalarni baholash, monitoring qilish va ularning ekologik ta'sirini aniqlash bo'yicha yagona standartlarning yetishmasligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Shu sababli O'zbekistonda yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Jumladan:

- ⇒ milliy yashil taksonomiyani ishlab chiqish;
- ⇒ yashil obligatsiyalar emissiyasi uchun huquqiy va institutsional bazani takomillashtirish;
- ⇒ ekologik loyihalarni baholash va monitoring qilish tizimini yaratish;
- ⇒ institutsional investorlarni kapital bozoriga jalb etish;
- ⇒ xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilishi yashil obligatsiyalar orqali jalb qilinadigan investitsiyalar hajmini oshirishga hamda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

---

<sup>359</sup> World Bank. Uzbekistan Country Partnership Framework 2022–2026.

<sup>360</sup> Taghizadeh-Hesary F., Yoshino N. Green Digital Finance and Sustainable Development Goals. – Singapore: Springer Nature, 2023. – 308 p.